
Qo'shtepa tumani hokimining "Istiqbol" mahalla fuqarolar yig'inida ommaviy sayyor qabuli bo'lib o'tdi.

Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbarining 2019-yil 26-iyul kuni "Istiqbol" mahalla fuqarolar yig'inida ommaviy sayyor qabuli bo'lib o'tdi.

Qabulda tuman Xalq qabulxonasi mudiri, tuman hokimi o'rinbosarlari hamda tumandagi tashkilot rahbarlari qatnashdi.

Qabulda jami 12 nafar fuqarolar qatnashib, ular tomonidan 14 ta murojaatlar bildirilib bular:

Elekt tarmoqlari liniyalarini ta'mirlash, ichimlik suvi tarmog'ini ulash, otalar oromgohi tashkil etish, ichki yo'llarni shag'allashtirish, suyultirilgan gaz balon bilan ta'minlashga yordam berish va boshqa masalalarda murojaatlar kelib tushdi.

Qabuldagi murojaatlar yuzasidan tuman hokimi I.Novikov o'rinbosarlariga va tashkilot rahbarlariga tegishli chora tadbirlarni belgilab, murojaatlarni qisqa muddatlarda qonuniy xal qilish choralari ko'rishliklari uchun topshiriqlarni berdi.





2019-07-27 16:24:04